

BOLALARNING PSIXIK RIVOJLANISHIDA KORREKSIYA VA KOMPENSATSIYA O'RNI

ADPI Maktabgacha ta'lim fakulteti

Maxsus pedagogika: Logopediya

Yo'nalishi 1 bosqich 101-guruh talabasi

Umaraliyeva Mashhura Mamasodiq qizi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada bolaning rivojlanish sohalari kompensatsiyalari bayon qilingan. Bolaning rivojlanish sohalari kompensatsiyalarining metodologik asoslari ko'rsatib berilgan. Jumladan, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarga alohida to'xtalib o'tilgan. Hamda bola tarbiyasiga va uning kelajagiga doir hikmatli so'zlar tahliliy o'rganilgan. Shuningdek bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari Yaponiya va Xitoy davlati bilan solishtirish orqali tahliliy yoritilgan. Hamda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish masalasi dolzarbligi borasidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: bola, rivojlanish sohalari kompetensiyalari, jismoniy rivojlanish vasog'lom turmush tarzining shakllanishi, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari, bilish jarayonining rivojlanishi, ijodiy rivojlanish, maktabgacha ta'lim, islohot, huquqiy asos, davlat standarti, o'quv dastur, tarbiyachi pedagog, ota-ona, yangi O'zbekiston, Renesans.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim va tarbiya-bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi 1, 3-modda hisoblanib, bolaning ilk rivojlanish yoshidan to 7 yoshgacha bo'lgan davrigacha uning har tomonlama kamol topishini ta'minlashga qaratilgan ta'lim- tarbiya jarayonini amalga oshiradi.

Mana shu jarayonda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirishga e'tiborni qaratish davr talabi sifatida dolzarbligini hech qachon yo'qotmaydi. Chunki barkamol avlod tarbiyasi har qaysi davlatning eng asosiy ustuvor vazifasi hisoblanadi. Bu borada birinchi prezidentimiz Islom Karimov shunday degan edilar: -' Har qaysi davlat, har qaysi millat o'z farzandlari qiyofasida, unib-o'sib kelayotgan yosh avlod timsolida shu xalqqa xos eng go'zal fazilatlarini namoyon etadigan, uning ezgu orzu-niyatlarini amalga oshirishda mardlik va fidoyilik ko'rsatishga qodir bo'lgan o'z tayanchi va suyanchini ko'rish tabiiydir'.

2, 165-bet

Darhaqiqat, bugungi avlod istiqbolda yangi O'zbekistonning taraqqiyotini ta'minlashi uchun ham jismoniy va ma'naviy sog'lom, intellektual salohiyatli bo'lishi talab etiladi. Bu talab maktabgacha ta'lim va tarbiya tashkilotlarida voyaga yetayotgan yosh avlodning ta'limi va tarbiyasiga bo'lgan e'tiborni oshirishni taqozo etadi. Shu maqsadda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni tadbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart- sharoitlar yaratish bo'yicha muhim ishlar amalga oshirildi.

2020-yil 22-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 'Maktabgacha ta'limva tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida'gi VMQ 802-sonli Qarori 3 qabul qilindi. Ushbu qarorga binoan bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari belgilab berildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimizda maktabgacha ta'limsohasida qabul qilingan me'yoriy- huquqiy hujjatlar bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari mavzusini o'rganishda metodologik asos hisoblanadi. Bularga asosan 2019 yil 16 dekabrda qabul qilingan 'O'zbekiston Respublikasi 'Maktabgacha ta'limva tarbiya to'g'risida'gi O'RQ-595-sonli qonuni 1 , O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi 'Maktabgacha ta'limtizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida'gi PQ-4312-sonli qarori 4 , Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda qabul qilingan 'Maktabgacha ta'limva tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida'gi VMQ-802-sonli qarori 3 kiradi.

Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllanishida amalga oshiriladigan vazifalarning huquqiy asosi sifatida 'Maktabgacha ta'limva tarbiya to'g'risida'gi qonuni xizmat qiladi. Bunda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllanishiga xizmat qiladigan maktabgacha ta'limva tarbiya tashkilotlari hamda tarbiyachi pedagoglar, ota-onalarning huquq va majburiyatlari mustahkamlangan. Maktabgacha ta'limtizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida esa bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirishning mavjud shart-sharoitlari va imkoniyatlari, kamchiliklari o'rganilgan hamda 2030 yilgacha bu jarayonda amalga oshiriladigan vazifalar belgilab berilgan.

Shuningdek birinchi prezidentimiz Islom Karimov hamda amaldagi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning asarlari va ma'ruzalari ham bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini o'rganishda metodologik asos sifatida xizmat qiladi. Bu borada mamlakatimiz mustaqilligining me'mori Islom Karimov 'Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch' asarida shunday yozadi: '-Odamzot uchun bir umr zarur bo'ladigan tabiiy ko'nikma va xususiyatlar, masalan, har qaysi bolaning o'ziga xos va o'ziga mos qobiliyati, atrofidagi odamlar bilan muomalasi, tengdoshlari orasida o'zini qanday his qilishi, yetakchilik xislatlariga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi, kerak bo'lsa, dunyoqarashi – bularning barchasi avvalo uning tug'ma tabiati, shu bilan birga, oilada oladigan tarbiyasiga uzviy bog'liq ekanini hayot tajribasi ko'p misollarda tasdiqlab beradi.

Aynan mana shu davrda bola hamma yaxshi-yomon narsani tushunib, anglay boshlaydi, uning beg'ubor ongi bamisoli bosma qog'oz singari oiladagi, yon-atrofdagi barcha voqea-hodisalarni, ularning zamiridagi taassurotlarni o'ziga shimib-singdirib oladi. Uning ota-onasiga, bobo va momolariga mehri va hurmati, o'zini o'rab turgan muhitga nisbatan munosabati kundan-kunga takomillashib boradi'. 5

Demak, bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllanishida birinchi navbatda oilaning, ota-onaning hamda uning o'rab turgan muhitning o'rni va ahamiyati katta ekan.

Bu borada prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 29 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va xalqiga murojaatnomasi 6 da yangi O'zbekistonda uchinchi Renesansni barpo etishda beshta xalqa ichida maktabgacha ta'limtashkilotlarini va oilani, beshta ustun ichida esa maktabgacha ta'limtashkilotlari tarbiyachilari va ota-onalarning hamkorlikdagi muhim mas'uliyatli vazifalariga to'xtalib o'tgan edilar.

Shu bilan birga I.V. Grosheva, L.G. Evstafeva, D.T. Maxmudova, Sh.B. Nabixanova, S.V. Pak, G.E. Djanpeisova, M.R. Isxakova 7 lar ham bu mavzu yuzasidan 'Ilk qadam' maktabgacha ta'limmuassasasining Davlat o'quv dasturini ishlab chiqishgan. Bu dasturda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarining harbiriga alohida ilmiy-uslubiy yondoshilgan.

Bugungi kunda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirishda biz 2020 yil 22 dekabrda qabul qilingan maktabgacha ta'limva tarbiyaning davlat ta'limstandartlariga ko'ra ish yuritimiz. Bu standartga ko'ra bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari quyidagilardan iborat:

- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

'Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi' sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlanganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

o'z imkoniyatlari va yoshi bilan bog'liq jismoniy rivojlanish me'yorlarigamos ravishda jismoniy faollik ko'rsatadi;

turli harakatchanlik faolligini uyg'un ravishda va maqsadli bajarishni biladi; turli hayotiy va o'quv vaziyatlarida mayda motorika ko'nikmalaridan

foydalanadi;

o'z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi;shaxsiy gigiena malakalarini qo'llaydi;

sog'lom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarini biladi;

xavfsiz hayotiy faoliyat asoslari qoidalariga rioya qiladi.

'Ijtimoiy-hissiy rivojlanish' sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakunigaetganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

o'z «Men»i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to'g'risidatasavvurga ega bo'ladi;

o'z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi;o'zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi;kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi; murakkab vaziyatlardan konstruktiv chiqish yo'llarini topadi.

G.Shopengauer 'Har bir bola qisman daho, har bir daho esa qisman boladir' - deb, bejizga aytmagan. Uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limda ana shunday daholar tarbiyalanadi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining qabul qilinganligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirdagi nutqida: 'Farzandlarimizning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko'plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar etishib chiqadi. Men bunga ishonaman'

- degan edi. 11, 633-bet

XULOSA

Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish masalasi hech qachon o'zining dolzarbligini yo'qotmaydi. Chunki, *birinchidan*, har qaysi davlat va millat yoki xalq o'zining avlodini barkamol bo'lishini eng oliy maqsadlar qatoriga qo'yadi. *Ikkinchidan*, aholining o'sish darajasini 1991 yilga nisbatan 2020 yilni oladigan bo'lsak, mamlakatimiz aholisi 7,4 foizga o'shgan, rivojlangan Yaponiya davlatida bu ko'rsatkich 3,5 foizga, Amerika Qo'shma Shtatlarida 1,8 foizga, rivojlanayotgan qo'shni Qozog'iston Respublikasida bu ko'rsatkich 2,5 foizni, Tojikistonda esa 4,3 foizni tashkil etmoqda. 12 Bu tahlillar mamlakatimizda

aholining o'sish darajasi rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan ham yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga O'zbekistonda bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlari bilan solishtirganda ham tug'ilish darajasi yuqori ekanligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Demak, maktabgacha ta'limtashkilotlariga keladigan bolalarning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirishga doir dasturlarni, o'quv-uslubiy adabiyotlarni yanada takomillashtirish talab etiladi. Chunkikechagi va bugungi hamda ertangi bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta farqlarni sezayapmiz. *Uchinchidan*, yangi O'zbekiston bugungi kunda o'z oldiga ezgu maqsad-uchinchi Renesansni barpo etishga tayyorgarlik ko'rmoqda. Mana shu maqsadga erishishda bugungi avlodning kuchli, bilimli va dono bo'lishi talab etiladi. Ana shu maqsadlarni amalga oshirish uchun uzluksiz ta'limtizimi isloh qilinmoqda. Jumladan, maktabgacha ta'limtizimi tubdan isloh qilindi. Bu tizimni yanada riojlanirish uchun huquqiy asoslar qabul qilindi va takomillashtirildi.

Xullas, bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini ilmiy nuqtai-nazardan o'rganish, uning ilmiy-uslubiy jihatlarini tahlil qilish va bu borada yangiliklarni joriy etish davr talabi hisoblanadi.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi 'Maktabgacha ta'limva tarbiya to'g'risida'gi qonuni. 2019 yil 16 dekabr. <https://lex.uz>.
2. Karimov I.A. (2001) Vatan ravnaqi uchun harbirimiz mas'ulmiz. 9-jild. T.: «O'zbekiston», 165-bet. <http://www.ziyouz.com>.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 'Maktabgacha ta'limva tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida'gi VMQ 802-sonli qarori. 2020 yil 22 dekabr. <https://lex.uz>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi 'Maktabgacha ta'limtizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida'gi PQ-4312-sonli qarori. <https://lex.uz>.
5. Karimov I.A. (2008) Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T.: 'Ma'naviyat', 33- 34-betlar. <http://www.ziyouz.com>.
6. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va xalqiga murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr. <https://president.uz>.